

Mahmudova Diyora Jamol qizi
1-kurs tayanch doktoranti,
Toshkent davlat sharqshunoslik instituti

ARAB TILIDA ISHTIQQONING ICHKI GURUHLARI VA ULAR ASOSIDA YASALGAN HOSILA SO‘ZLAR TAHLILI

Аннотация: Мақолада ҳозирги араб тилида “иштиқоқ” усулида янги сўзларнинг ясалишининг ўзига хос айрим хусусиятлари ёритилиб, мазкур ҳодиса воситасида сўз ясалиш усуллари, “иштиқоқ”нинг ички гуруҳларига алоҳида аҳамият қаратилган.

“Иштиқоқ” араб тилидаги лексик ҳодисалардан бири саналиб, у янги сўзларнинг ясалиши ва тилнинг бойишига хизмат қилади. “Иштиқоқ” атамаси ўзак сўз ва ҳосила сўзнинг ўртасидаги шакл ҳамда маъно жиҳатдан бўлувчи алоқаларни сақлаб қолган ҳолда янги сўзнинг ясалиш жараёнини англатади. Ушбу мавзу Ибн Манзур, Ҳалил Аҳмад Ал-Фараҳидий, Ибн Ас-Саййид, Абдуллоҳ Амийн, Муҳаммад Ҳасан Ал-Жабал каби араб тилшунос олимлари томонидан ўрганилган.

“Иштиқоқ”нинг “ал-иштиқаақ ал-кабийр” –катта иштиқоқ, “ал-иштиқаақ ас-соғийр” – кичик иштиқоқ, “ал-қалбу ал-луғавийю” – лексик метатеза ва “ан-наҳту” –икки ёки ундан ортиқ сўзлардан сўз ясаш сингари гуруҳлари мавжуд. “Иштиқоқ”нинг ҳар бир гуруҳи араб тилида янги сўзларнинг ҳосил бўлишига ўзига хос тарзда таъсир ўтказиб, улар сабаб сўз ёки шаклан, ёки маъно жиҳатдан ўзгариб боради.

Тадқиқотда “иштиқоқ” доирасида сўзларнинг қандай ўзгаришларга учраши, бу ўзгаришларнинг ташқи ва ички омиллар билан боғлиқлиги масаласи ёритилган.

Араб тилини ўрганувчиларга ушбу тилдан сабоқ беришда янги сўзларнинг ҳосил бўлишида ўзига хос жараёнлар ва тилдаги сўзларнинг шакл ва маъно жиҳатдан қандай ўзгаришларга учрашини аниқ илмий мисоллар тариқасида тушунтириш бу тилга бўлган қизиқишни ҳамда таълим самарасини янада ошишига ёрдам беради.

Калит сўз ва сўз бирикмалари: “иштиқоқ”, муштақотлар, ўзак, “ал-иштиқаақ ал-кабийр”, “ал-иштиқаақ ас-соғийр”, “ал-қалбу ал-луғавийю” – лексик метатеза ва “ан-наҳту”–сўзларни калкалаш.

Аннотация: В данной статье даётся информация о некоторых особенностях словообразования по методу “иштиқоқ” в современном литературном арабском языке и особенно обращается внимание на методы

словообразования, группы “иштикак”, а также рассуждениям известных лингвистов по “иштикак”.

“Иштикак” считается одним из лексических явлений в арабском языке, этот метод служит для образования слов и обогащения языка. “Иштикак” означает формирование нового слова с сохранением формы и смысла значения.

Каждый вид и каждая группа “иштикак” по-своему влияет на образование новых слов в арабском языке и в результате данного влияния слова изменяются либо по значению, либо по форме. В данном исследовании освещается изменение слов в рамках “иштикак” и вопрос связи этих изменений с внешними и внутренними факторами.

В преподавании арабского языка объяснение специфических процессов в образовании новых слов и какие изменения происходят в форме слов и их значения при помощи четких научных примеров, помогает повысить интерес к этому языку и эффективность образования.

Опорные слова и выражения: “иштикак” (словообразование), муштаккаты (производные слова), корень, метатеза, “аль-иштикак аль-кабийр”, “аль-иштикак ас-согийр”, “аль-калб аль-лугавиййу” – лексическая метатеза, “ан-нахту” (высекание).

Abstract: This article provides information about some features of word formation according to the “ishtikak” method in modern Arabic, and especially attention is paid to the word formation methods and groups of “ishtikak”, as well as the reasoning of ancient and modern Arabic linguists according to “ishtikak”.

“Ishtikak” is considered one of the lexical phenomena in the Arabic language, it serves to form words and enrich the language.

Each type and group of “ishtikak” in its own way influences the formation of new words in the Arabic language and as a result of this influence, the words change either by meaning or by form. This study highlights the change in words within the framework of “ishtikak” and the question of the connection of these changes with external and internal factors.

In teaching Arabic, the explanation of specific processes in the formation of new words and how words in a language change in terms of form and meaning with the help of clearly scientific examples helps to increase interest in this language and the effectiveness of education.

Keywords and expressions: “ishtikak” (word formation), mushtakkats (derived words), root, “al-ishtikak al-kabiyr”, “al-ishtikak as-sogiyr”, “al-kalb al-lugaviy” – metathesis, “an-nahtu” (carving).

Arab tilida soʻz yasalish hodisasi “ishtiyoq” deb ataladi hamda uning quyidagi toʻrt guruhi mavjuddir:

1. "الاشتقاق الصغير";

2. "الاشتقاق الكبير";
3. "الاشتقاق الأكبر";
4. "النحت"

Ulardan birinchisoʻz yasash guruhining ikki xil nomi boʻlib, u "الاشتقاق العام" – “al-ishtiqaq al-aʼamu” yoki kichik va sodda soʻz yasash "الاشتقاق الصغير" – “al-ishtiqaq as-sogʻiyru”dir. U bir soʻzning ikkinchi bir soʻzdan soʻzlarning shakl va maʼnolari oʻrtasidagi aloqalarini, tub undosh harflarning oʻxshashligi va ularning joylashish tartibini saqlab qolgan holda oʻzgartirish sifatida tushunilgan. Ishtiqoqning bu turida harakatlar qoʻyish yoki ularni olib tashlash bilan ham soʻz yasalib, bu narsa ularning maʼnosiga ham taʼsir koʻrsatadi. Masalan, الكتـاب yozmoq feʼlidan الكتاب – kitob hamda الكتـيبة yozma hujjat soʻzi hosil boʻlgan boʻlsa, سأل soʻramoq feʼlidan المسألة – masala soʻzi hosil boʻlgan.

Shuningdek, soʻz tarkibidagi harakat ham uning maʼnosiga katta taʼsir koʻrsatadi, misol uchun:

Agarda odamlar biror kishini laʼnatlasalar, u odam laʼnatlangan رجل لُعْنَةٌ, deb ataladi, agarda u odamlarni laʼnatlasa رجل لَعْنَةٌ, deb ataladi, agarda odamlar uni haqoratlasalar, u رجل سُبَّةٌ, deb, agarda u odamlarni haqoratlasa, u holda رجل سُبَّةٌ deb atalgan. Boshqacha qilib aytganda, birgina harakat orqali soʻzning aniq yoki majhul daraja sifatosh ekanligini ham bilib olish mumkin ekan. Quyida bunday feʼllar jadval koʻrinishida berilgan:

| اسم المفعول | اسم الفاعل |
|--------------------------------|------------------------------------|
| سُخِرَ - masxaralangan | سُخِرَ - masxara qiluvchi |
| كُلِّغَ - kulgiga qolgan oodam | كُلِّغَ - hadeb kulaveradigan odam |
| خُدِعَ - aldangan | خُدِعَ - aldoqchi |
| لُعِنَ - laʼnatlangan | لُعِنَ - laʼnatlovchi |
| سُبِّ - haqoratlangan | سُبِّ - haqorat qiluvchi |

Ikkinchi turi leksik substitutsiya (yaʼni birinchi tovushni boshqa tovush bilan almashtirish – bu koʻproq oʻzlashtirilgan soʻzlarda uchraydi) "الابدال اللغوي" deb atalib, u katta soʻz yasash "الاشتقاق الكبير" usulidan foydalanilgan holda hosil boʻlgan soʻzlardir. Bu turga boshqa soʻzlardan oʻzgarish undoshlari oʻxshash boʻlgan tub negizdosh undoshlarning birini almashtirish yoʻli bilan yasalgan soʻzlar kiradi. Boshqacha qilib aytganda, bu holda tovush shakli va maʼno jihatidan bir-biriga yaqin juft soʻzlar oʻzaro aloqador deb talqin etiladi. Masalan: مدح – مده – “maqtamoq”, – ختر – حشِب – هَشِب – “oqibketmoq”, – سرب – زرب – “aldamoq”, – ختل – جدث – “yormoq”, – فلق – فلق – “quymoq (suyuqlikni)”, – سفك – سفك – “(narsalarni) yigʻmoq”, – جدف – جدف – “qabr”, “goʻr”. Ibn Jinniy oʻzining "كتاب الإبدال" asarida mazkur nazariyani fonetik jihatdan asoslab bergan.

Ishtiqoqning bu turiga "الابدال اللغوي" bilan birga التصاق (bir biriga yaqinlik) ham kiradi. Bu holatda soʻzlar tarkibidagi bir harf bilan bir biridan farqlanadi, maʼnolarida baʼzan oʻxshashlik kuzatiladi:

منهق maʼramoq

منعق qichqirmoq

سادل sochni yoymoq

سدر hijolat tortmoq

Uchinchi tur – yanada kattaroq soʻz yasash "الاشتقاق الأكبر" usuli orqali hosil boʻlgan soʻzlar boʻlib, boshqacha qilib aytganda, leksik metatezalar "القلب اللغوي" yaʼni bir soʻzni ikkinchi soʻzning tub negizi tarkibiga kiruvchi undoshlar oʻrni tarkibini oʻzgartirish bilan sharhlanadi. Bunda harflar va maʼnolarning oʻxshashligi saqlab qolinadi. Ushbu tur Al-Halilning "كتاب العين" lugʻatida alohida koʻrsatilgan. مدح – حمد – “maqtamoq”, – سبك – سكب – “umidsizlanmoq”, – أيس – يس – “ketmoq”, – غبر – غرب – “quymoq”, – بعض – بضع – “maʼlum miqdor”. Birinchi marta Ibn Jinniy oʻzining “al-Xasois” asarida 3 yoki 4 undoshni ularning joylashish tartibidan qatʼiy nazar terish orqali hosil qilingan soʻzlarning maʼnolarida umumiylik boʻlishi mumkin ekanligini taʼkidlaganedi. Masalan نجد، جبر، oʻzaklarining ishtirokida hosil qilingan har qanday birikma (har qanday 3 harfli oʻzak harflarining oʻrnini 6 xil koʻrinishda almashtirish imkonini beradi) kuch-qudrat tushunchasini bersa، قول ning variantlari esa ikkita “tezkorroq” va harakatchanlik” maʼnolarini anglatadi va hokazo. Mazkur fikrni isbotlash uchun oʻxshash maʼnolari ajratib koʻrsatilishi mumkin boʻlgan tegishli oʻzakka ega boʻlgan alohida soʻzlardan foydalanilgan. Metatezaning soʻz yasovchilardan bittasi sifatida koʻrsatilishi har bir harf (tovush)ning alohida maʼnoga ega ekanligi haqidagi maʼlumotga asoslanadi, undoshlarning oʻrnini tub oʻzak doirasida almashtirish mazkur birliklarning umumiy maʼnosining oʻzgarishiga olib kelmasligi haqidagi qoidaning asosida ham shu fikr yotadi. Bundan ancha vaqt oldin lugʻatshunos Al-Halil metatezadan "كتاب العين" asarida soʻzlarni uyalashtirish uchun yuzaki usul sifatida foydalangan edi.

Shu oʻrinda, bir narsani aytib oʻtish joiz, baʼzi arab tilshunoslari "الاشتقاق الكبير" ga tegishli xususiyatlarni "الاشتقاق الأكبر" ga xos deb, uni shunday nomlagan boʻlsalar (Ibn Jinniy), Ibn Hojib, Ash-Shavkoniy, Muhammad Siddiq Xon kabi olimlar uni ishtiyoqning kichik guruhiga kiritganlar.

Va nihoyat toʻrtinchi tur–eng katta soʻz yasash الاشتقاق الكبّر yoki boshqacha qilib aytganda "النحت" – “kesish” turi ikki va undan ortiq soʻzlardan yangi soʻz yasashdan iborat, bunda har bir soʻz yasovchi birikmalardan bitta yoki undan ortiq harf “kesiladi”, qolganlari esa oʻzaro birlashib, tilda mavjud boʻlgan andozalarga muvofiq ravishda vokalizatsiyalangan bitta soʻzni tashkil etadilar. Mazkur nazariyaning izchil tarafdori Ibn Foris 4 harfdan koʻproq oʻzakdan hosil qilingan soʻzlar 2 ta 3 harfli oʻzakning birlashishi orqali hosil qilinadi, deb taʼkidlagan va "مقاييس اللغة" asarida, uning fikriga koʻra 2 uch harfli soʻzlardan hosil qilingan 4 harfdan iborat oʻzaklari 300 taga yaqinini misol qilib keltiradi. Misol uchun, u quyidagi دحرج – “dumalatmoq” feʼlini دحر – “itaroq” va جرى – “yugurmoq” feʼllariga, هروول – “shoshilmoq” feʼlini هرب – “qochmoq” va ولى – “aylantirmoq, burmoq” feʼllariga, صهصلق – “oʻtkir”, “baland” (ovoz haqida)ni سهل – “kuchli ovoz” va صلح – “baland ovoz” soʻziga qiyoslaydi.

Anʼanaviy “naxt” usuli baʼzi frazeologizmi elementlardan yangi hosil qilingan tub negizlar sifatida talqin qilinadi. Bunday uslub orqali yangi leksik negizlar, mavjud boʻlgan soʻz yasash andozalari asosida hosil qilinishi mumkin. Bunda nutqning qisqaroq boʻlishi uchun qoʻllaniladigan tub undoshlari islom dinining qoidalariga mos keladigan soʻzlardan olingan toʻrt harfli feʼllar va ularning masdarlari yasaladi.

Ibn Jinniy koʻrsatib oʻtgan “لو لا” – “agarda... maganda” (iltimosga javoban) dan hosil qilingan “لول” – “demoq” feʼli oʻsha shakldagi hosilalar qatoriga kiradi.

Arab tilshunosligida faqat tub negizlari bittadan ortiq oʻzaklarning elementlaridan yasalgan soʻzlarga naxt soʻzlar hisoblanadi. “سَمَى” – soʻzi “سَمَى” dan, “حمد - حمدل” dan olingan uch oʻzak harfli ismdan hosil qilingan hosilalar hisoblanadi va ularga morfologik derevantlar sifatida qaraladi. “Naxt” bir necha soʻzlarning tovush elementlaridan yangi tub negiz yasash usuli sifatida, turli soʻzlarning negizlarini birlashtirish yoʻli bilan yangi nomlar hosil qilish uslubidir. Turli sifatlar va mavhum otlarga inkorni anglatuvchi “لا” qoʻshish bilan arabcha soʻzlar yasaladi. “لاشرعي” – noqonuniy, “لاانساني” – gʻayriinsoniy, “لاديموقراطي” – demokratiyaga qarshi, “لانهائي” – cheksiz, “لاسلكي” – simsiz, “لاشيء” – hech narsa. Shunga oʻxshash chaqiriq, hayratlanishni ifodalovchi “يا” yuklamasi “omad” maʼnosini anglatuvchi otga qoʻshilishi bilan “يا نصيب = ” نصيب – “lotoreya” soʻzi yasalgan. Arab alifbosidagi birinchi va ikkinchi harflarning qoʻshilishidan “alifbo” soʻzi yasalgan (yoki qadimgi “أبجدية” soʻzini taqqoslang, bunda alif, be, jim, dol harflaridan bitta soʻz yasalgan).

Arab tilida oz bo‘lsada shunday murakkab so‘zlar borki, ular mustaqil ravishda mavjud bo‘lgan yoki boshqa tillardagi so‘zlarni kalkalash yo‘li bilan yaratilgan sun’iy so‘zlardir. “مثلوز” – shirin, mag‘zibor, danakli o‘riklar. Bu so‘z “مشمش” – o‘rik va “لوز” – bodom so‘zlaridan yasalgan. Tavfiq al-Hakim yangi sintetik janrning nomini “مسرحية” – “dramatik asar” deb atagan. Shuningdek, sun’iy so‘zlarning quyidagi “ي” suffiksi bilan affikslashuvi ko‘rsatilgan misolga e’tibor bering. “برمائي” – suvda ham, quruqlikda ham yashovchi, (“بر” – “quruqlik” va “ماء” – “suv” so‘zlaridan yasalgan) yoki “كهرمائي” – so‘zi “كهرباء” – elektr va “ماء” – “suv” so‘zlaridan yasalgan.

Hosil qilinishi tasodifiy xarakterga ega bo‘lgan murakkab arabcha so‘zlar ro‘yxati deyarli yuqorida keltirilgan misollar bilan chegaralanadi. Arabtilidagi bunday so‘zlar aslida faqat ba’zi atamashunoslik muammolarini hal qilishning bir yo‘li bo‘lsada, u ko‘p bahslarga sabab bo‘luvchi yo‘l hisoblanadi. Arab negizlarini boshqa tillardan, xususan turkchadan bevosita o‘zlashgan murakkab so‘zlardan farqlay bilish kerak.

Zamonaviy muallifning fikricha, Ibn Foris o‘zining 4 va 5 harfli arabcha o‘zaklarning tarkibiy xususiyatlari haqidagi nazariyasini xorijiy (mazkur o‘rinda forscha) so‘z yasash qoidalarining ta’siri ostida yaratilgan deb taxmin qiladi. “Naxt” qoidasi birinchi bo‘lib misrlik tilshunos Abdulloh Aminning hozirgi zamonaviy asarlarida keng sharhlangan.

Ba’zi zamonaviy tilshunoslar esa ishtiyoqning beshinchi guruhiga "الإتباع" ni ham kiritadilar. Ishtiyoqning bu guruhi o‘zbek tilidagi juft so‘zlarga to‘g‘ri keladi. Biroq, arab tilidagi bunday so‘zlarning yasashida ma’lum tartib-qoida mavjud, ya’ni bunday so‘zlar yasalayotganda ikkinchi juft so‘zning birinchi harfi “ba’un”ga o‘zgartiriladi. Masalan:

حيك الله و بياك – Allohurningiuzoqqilsin!

حسن بسن - yaxshi

كثير بثير – ko‘p

خلطة بلطة - tartibsiz

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. الاشتقاق [Derivation]. Al-ishtikak. القاهرة، س. 1956، ص. 124.
2. ابن المنظور، لسان العرب. [Arabes tong]. Lisan al-arab. Ibn Manzour. مصر، ص. 135.
3. ابن السيد، المخصص [Specified]. Al-Muxassas. Ibn Sayyid. بيروت، ص. 123.
4. الاتفاق المباني و اختلاف. Ittifaqal-mabaaniyvaixtilaafal-maaniy. ص. 6.
5. كتاب العين [The ayn book]. Kitaab al-ayn. القاهرة، ص. 164.
6. الاشتقاق و اثره في النمو اللغوي [Derivation and its effect on linguistic development]. Al-istiqak va ishtikakvairsuhufin-numuvvil-lugaviyyi. 1399، ص. 15.

7. م.ح.ح.الجبيل، ظاهرة الاشتقاق [Derivation phenomenon] م.خ.خ.آل-. Zaahiratul-ishtikak. 41. ص. 2006، القاهرة، جابال
8. Арабско-русский словарь [Arabic-russian dictionary], Ташкент, 1994 год
9. مقاييس اللغة، القاهرة. 1336. Makayis al-lugati. [Language metrics] س.ه.، ص 164
10. Qodirov T.Sh., Aliyev D.I. Arab tili leksikologiyasi. [Lexicology of the Arabic language]. Toshkent., 2010.